

TEXNOLOGIK TA'LIMDA O'QUV JARAYONI NATIJALARINI BAHOLASH USLUBI

Yusupov Muhammad – PhD

*A.Qodiriy nomidagi JDPU Texnologik ta'limga
tasviriy san'at fanlari kafedrasi mudiri,*

*Erjigitova Gulmira
Texnologik ta'limga II bosqich magistranti*

Annotatsiya. Maqolada texnologik ta'limga o'qituvchilari o'quv jarayoni natijalarini baholashga oid texnologik va uslubiy baholash mezonlari haqidagi mulohazalar bayon qilinadi.

Kalit so'zlari. Maqsad, faoliyat, jarayon, "o'zlikni anglash", nazorat, tizim, vosita, variant, uslub, axborot, seminar, suhbat.

O'quvchilarining har qanday faoliyati natijasini ob'ektiv baholash o'quv jarayonining muhim va ajralmas qismi ekanligi barchaga ayon, chunki bu ularda maqsadga intiluvchanlik kayfiyatini shakllantiradi va o'qishga qiziqishini oshiradi.

Maktablarda o'quv fani va uni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq holda o'quv jarayoni natijalarini baholashning bir qancha variantlari mavjud. Bu variantlarni quyidagi belgi va asoslariga ko'ra tavsiflash mumkin:

- Qo'llash darajasiga ko'ra;
- Asosiy rivojlantiruvchi omil bo'yicha;
- O'zlashtirish komsepsiysi bo'yicha;
- Shaxsiy belgi – sifatlariga mos yo'nalganligi buyicha;
- Mazmuni xususiyatlari buyicha;
- Boshqaruv turi buyicha;
- O'quvchilarga yondoshuvi bo'yicha;
- Ko'p qo'llaniladigan o'qitish uslublari bo'yicha;
- Ko'p qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar bo'yicha;
- O'quvchilar psixologik toifalari bo'yicha;

Baholash variantlarini tavsiflashda ularning eng yaqqol ajralib turadigan xususiyatlariga asoslaniladi. Aslida esa har bir variant sof holda uchramaydi, ularda boshqalarda uchraydigan elementlar ham albatta mavjud bo'ladi.

Turli fan o'qituvchilari tomonidan har bir o'quv fanining asosiy xususiyati, mazmunining tarkibi, amaliy, nazariy qismlarining nisbatiga mos ravishda eng qulay baholash variantlarini qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar va o'qitish uslubi (usul) lariga mos ravishda to'g'ri tanlash jiddiy hamda muhim ahamiyatga ega. Bu esa

o‘qitishning pedagogik texnologiyasi bilan o‘qitish uslubi (metodikasi) orasidagi ayrim farqlarni solishtirish taqazo etadi.

Hozirgi kunda o‘qitishning pedagogik texnologiyalari haqidagi aniq tushuncha va tasavvurlar birmuncha kamligi natijasida ularni o‘qitishning xususiy uslublari bilan deyarlik bir xil (teng) deb hisoblash va mos holda ularning natijalarini baholashda ham bir xillik hollari uchraydi. Aslida esa ular orasida jiddiy farqlar mavjud.

Pedagogik texnologiya ta’lim oluvchilarga o‘qituvchi tomonidan kasbiy pedagogik maqsadlarni amalga oshiruvchi ta’sir ko‘rsatilishini tashkil qilish tizimini belgilaydi.

Pedagogik texnologiya (yoki o‘qitish texnologiyasi) qanday faoliyatini qay darajada amalga oshirishdan iborat.

Uslub (metodika) esa biror ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish usullari va yo‘llari majmuasi bo‘lib, ma’lum o‘quv fanlarini o‘qitish sifati qonuniyatlarini tadqiq qiladi.

O‘quv jarayoni natijalarini baholash variantlarini to‘g‘ri tanlash esa uslubning pedagogik texnologiyalardan farqini to‘g‘ri tushunish va amalda har ikkisidan unumli hamda muvofiq foydalanishni taqazo etadi. Ular orasidagi ayrim farqlarni quyidagicha izohlash mumkin.

Maqsad

Pedagogik texnologiyada – komil insonni shakllantirish.

Uslub (metodika) da – alohida o‘quv fanlarini o‘qitish va tarbiyaviy ishlarning sifatlari bo‘lishini ta’minlash.

Faoliyat mezoni

Pedagogik texnologiyada – belgilangan maqsad bo‘yicha ta’lim-tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish; so‘zlash – ko‘rsatish – vazifa berish – rahbarlik qilish – baholash (nazorat).

Uslubda – ma’lum fanni o‘qitish va tarbiyaviy ishlarni tadqiq qilish; o‘quvchilarni bilish faoliyatini tadqiq qilish – pedagogik texnologiyani mavjud sharoitga muvofiq rivojlantirish – samaradorlik darajasini baholash (aniqlash).

Pedagogik jarayon

Uslub – pedagogik jarayon o‘qituvchining ilg‘or tajribalarga bog‘liq holda natiajalarning xususiy hisoblanishi va har kimda har xil bo‘lishini nazarda tutadi. Yuqorida keltirilgan farqlardan ko‘rinadiki, uslub pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi va ko‘zda tutilgan maqsadga erishish uchun qo‘llaniladigan harakat usullari (o‘qituvchining kompyuter, kitob va boshqa ta’lim-tarbiya vositalarini belgilangan maqsadga muvofiq qo‘llash) ni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi pedagogik jarayonlarda, xususan texnologik ta’limda, ko‘pincha texnologiya, metodika (uslub), metod (usul)lar bitta tushuncha sifatida qaralmoqda va mos holda o‘qituvchilarning o‘quv jarayoni natijalarini baholash mezonlari aralashtirib idrok qilinmoqda. Bu esa ba’zan uslubni texnologiya tarkibiga kiritib, ba’zan esa aksincha, u yoki bu texnologiyalarni uslublar tarkibiga kiritib baholashlarga olib

kelmoqda. Ushbu uchta tushunchaning har biri juda keng qamrovli hamda alohida ahamiyatga ega ekanligini inkor etmagan holda, o‘quv jarayoni natijalarini baholashda bir-biridan ajralmas tushunchalar hisoblanishini unutmaslik lozim.

O‘quv jarayoni natijalarini baholash uslubi, o‘qituvchi faoliyatidagi rahbarlik va nazorat (baholash) alohida masalalar bo‘lib, har bir mashg‘ulotning maqsad va mazmuniga qarab amalga oshiriladi. Baholashning eng haqiqiy va to‘g‘ri turi o‘z-o‘zini nazorat qilish, ya’ni o‘zlikni anglash hisoblanadi.

Qadimgi yunon donishmandi Suqrotning bundan 25 asr muqaddam o‘rtaga tashlagan “O‘zligini bil, shunda sen olamni ham bila olasan!” degan mashhur shiori hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qtgani yo‘q.

Shuningdek, bobokalonimiz (asli Shahrисабизлик bobosi ko‘chib keyinchalik Hindistonda yashagan) Mirza Bedil ham huddi shunga o‘xhash fikri izhor qilib:

Ashyo-nazarimiz olug’uvchi ,
Asmo-zikri tinglamoqdir bu.
Barchasi insondan qochirar uzoq,
Asli inson bo’lmoqo’zi bilmoq-ku degan edi.

Aytilganlaridan ko‘rinardiki, “o‘zlik”ni anglash kishi tafakkurini belgilovchi barcha fikriy ichki (iste’dod, talant, qobiliyat, zakovat, mulahazakorlik, valiylik, layoqat, iroda, xotira, donishmandlik, bilim, ko‘nikma, malaka va hakoza) va tashqi(sinchkovlik, qiziquvchanlik, ajablanish, sabab va oqibatini bilishga axd qilish, maqsad sari intiluvchanlik, tashabbuskorlik, talabchanlik, jo’shqinlik, “qaynash”, “shaxdi baland” bo’lishi va boshqa) xislat hamda fazilatlar majmuasi bo’lib, o‘quv jarayoni natijalarini baholashning bosh psixologik mezoni deb hisoblash mumkin.

Xaqiqatdan ham, kishi nazlida, go’yo u o‘z tafakkuri va hulq atvori (o‘zligi)ni juda yaxshi biladigandek tuyiladi. Bordi-yu biror shaxs o‘zini-o‘zi chetdan kuzatishga Musharraf bo’lganda edi, u o‘zini-o‘zi taniy olmagan, ba’zi tafakkuriy fikr-mulohazalari va qiliqlarini bema’ni deb topgan bo’lar edi.

Zero, bunday chuqurroq, o’ylab qaralsa, hozirgi qurilishda ishlayotgan mutaxassislar tafakkuri, qadimgi Misr fir’avlari uchun hayratmuz hisoblanadi, bugungi kunda ham qurilish texnologiyasi aniqlik va ilmiylik salohiyati bilan bahslar sababchi bo’lib turgan ehromlar qurgan qullarning tafakkuridan yashimi yoki yomon degan savolga ko‘pchilik na yaxshi na yomon deb javob bera oladi. Shu ma’noda o‘quvchilar-o‘quv jarayoni natijalarini o‘zlari baholashini garchi shu mantiqiy (haqiqiy) insoniy fazilat bo’lsa-da amalda qo’llanishi tavsiya etib bo’lmaydi. Bunday baholash natijalari harkimdagi harkim hususiy fazilatlarga borib taqaladi. Bu holatni diniy ta’limotlarda “beayib parvardigor” deya tariflanishi bilan izohlash mumkin. Aytilganlarga asrlar bo’yi qamoqxonada “dars olayotgan” insonlarning fazilatlari yaqqol misol bo’ladi.

Aytilganlaridan ko'rinaridiki, uslub pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Texnologoyada baholash ko'proq jaryoni, miqdoriy va hisob-kitob element (komponent) lariga e'tibor berilsa, uslubda esa maqsad, mazmuni, sifat va variantili baholash tamonlari ko'proq ifodalanadi va

Bu o'quv jarayoni, ya'ni o'qituvchining faoliyati tarkibi, vositalari, usullari va shakllari nazorati bilan eng muvofiq darajada bog'lanishni ilmiy asosda boshqaruv tizimi deb tahlil qilishni taqazo etadi.

O'quvchilarning o'quv yutuqlari nazorati – ularni to'g'ri baholash maqsadidagi tekshiruv bo'lib, u:

-o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari (BMK) ni aniqlash, o'lchash va baholash;

-o'qituvchining o'quvchilar bilan qaytar (o'zaro) aloqasini, ular tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasi to'g'risidagi haqiqiy ma'lumotlarni olish, shuningdek kamchiliklarni to'g'ri aniqlashni ta'minlaydi. Uning mazmunini quyidagicha ifodalash mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'qitish usullari:


- ma'ruza;
- laboratoriya;
- amaliy ish;

- o'quv loyihalarini va texnologiyalarining o'ziga xos jihatlariga mos holda ularning jarayoni natijalarini baholash mazmuni ham o'zgarib boradi.

Masalan, ma'ruza sifatini baholashda o'qitish (dars) jarayonida qanday pedagogik texnologiyani qo'llashdan qat'iy nazar baholashda uning mezonlari:

1. Mashg'ulotning tashkil etilishi (15 ball):
 - 1.1. O'qitishning texnik vositalaridan foydalanish malakasi.
 - 1.2. O'quvchilarni nazorat qilishi.
 - 1.2. Auditoriyani jalb etish darajasi.
2. Mashg'ulot mazmuni (15 ball):
 - 2.1. Mavzu mazmunining dolzarbliji.
 - 2.2. Ilmiy-amaliy yo'naltirilganligi.
 - 2.3. Avvalgi mavzular bilan bog'langanligi.
 - 2.4. Tavsiya etiladigan manbalar sifati.
- 2.5. O'quvchilarning qiziqishlari va moyilliklarini ta'minlash usullaridan foydalanganligi.

O‘quv yutuqlari nazorat tizimi



3. Pedagogik madaniyati (20 ball):
 - 3.1. Pedagogning tashqi ko‘rinish.
 - 3.2. O‘zini tutish etikasi.
 - 3.4. Nutq madaniyati.
 - 3.5. Talabalar bilan muloqot.
4. O‘qitish uslubi (50 ball)

- 4.1. Mavzuni bayon etishdagi aniqlik, mantiqiylik va izchillik.
- 4.2. Axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi.
- 4.3. Maqsadga erishganligi.

Yuqoridagi namuna o‘qituvchining ma’ruzadagi ochiq darsini ham texnologik va ham uslubiy baholashga taalluqli. Shuningdek o‘quv jarayoni natijalarini boshqa mashg‘ulotlarga ham taalluqli bo‘lib, ularda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari har xil usullar bilan (test, namoyish, ko‘rsatish, suhbat, laboratoriya, seminar, mustaqil ish, amaliy ish, loyiha (kurs loyihasi)lar va hakazo bilan bog‘liq holda o‘ziga xos (test va boshqa) topshiriqlar orqali baholanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ba’zi hollarda o‘quv jarayoni natijalarini baholashda texnologiyalar va uslublarni bitta tushuncha sifatida idrok qilinmoqda. Bunday Bunday texnologik baholashni uslubiyya va aksincha uslubiy baholashni texnologik baholash tarkibiga kiritish hollari (tushunchasi) faqat xususiy fanlar pedagogik texnologiyasi va mahalliy darajalardagi o‘qitish uslublari tushunchasi bilan mos keladigan xollargagina taalluqlidir. Texnologik baholash yetarli tayyorgarlik va tajribaga ega bo‘lgan pedagoglar tomonidan qayta tiklash va qo‘llash mumkinligi bilan individual bo‘lgan baholash uslubidan farq qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ahliddinov R. Maktabni boshqarish san’ati. –Toshkent, “Fan” -2006.
2. Zamonaviy dars. Ilmiy-metodik to‘plam. A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI. – T.: 2007.
3. “Ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari” mavzusidagi seminar-trening materiallari. –T.: 2022 y.
4. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. (o‘quv qo‘llanma). –T.: “Fan”, 2006.
5. Tolipova J.O. “Pedagogik texnologiyalar-do‘stona muhit yaratish omili”- T.: YuNISEF, 2005.
6. Saidahmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash naumnalari. –T.: RTM. 2000.
7. Talabalarning o‘quv yutuqlari nazorati. “O‘quv mashg‘ulotlarida innovatsion ta’lim texnologiyalarini loyihalashtirish, rejalashtirish va uni amalga oshirish” mavzusidagi seminar trening materiallari. Samarqand – 2012.